

SINFDAN TASHQARI FAOLIYAT UNDA QATNASHUVCHILARNING MA'NAVIY VA JISMONIY RIVOJLANISHI HAMDA YOSH XUSUSIYATLARIGA KO'RA BELGILANISHI

Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Nuralibodullaye@buxdpi.uz

***Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra va sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, sohasining nazariy prinsiplari mohiyatini ochib berish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda ularning bilim salohiyatlarini rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, sinf, tahlil, ma'naviy, yosh xususiyatlari, maqsad, mohiyat, o'qituvchi, malakalar, takomillashtirish, muhim vazifalar.*

***Аннотация.** В статье речь идет о духовном и физическом развитии участников внеклассной деятельности, а также цели внеклассной занятий по возрастным особенностям - совершенствовать навыки чтения, раскрывать суть теоретических основ области, изучать на внеклассных занятиях предоставляется информация о возрастных особенностях учащихся и развитию их познавательного потенциала.*

***Ключевые слова:** творческое мышление, класс, анализ, духовные, возрастные особенности, цель, сущность, учитель, навыки, совершенствование, важные задачи.*

***Annotation.** The article deals with the spiritual and physical development of the participants in extracurricular activities, as well as the purpose of extracurricular study according to age characteristics - to improve reading skills, to reveal the essence of the theoretical principles of the field, to study in extracurricular classes information about the age characteristics of students and the development of their knowledge potential is provided.*

Key words: creative thinking, class, analysis, spiritual, age characteristics, purpose, essence, teacher, skills, improvement, important tasks.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi rivojlanish bosqichida ta'limining istiqbollari va konseptual asoslari shaxsining mustaqil faoliyatni amalga oshirishda ijodiy yondashishni va kreativ fikrlashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan rivojlantirishga, ayniqsa, kelajak avlodni unib-o'sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹, degan fikrlari taraqqiyot sharoitida har qanday ta'lim shaklida o'quvchilarni ijodiy fikrlarshga, yangicha g'oyalar egasi bo'lishga, qolaversa, yangi davrni yaratishga imkoniyat beradi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiradigan metod va vositalarni yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilinayotgan qaror farmonlar buning yaqqol isbotidir.

Aksariyat o'quvchilar o'zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go'yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega o'quvchilar kreativlik sifatlariga egalik o'z sohasining yetakchilari (ya'ni "katta K" toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan o'quvchilarda bo'lishiga ishonadilar. O'quvchilar qachonki kreativ shaxs bo'lish uchun o'z sohasining yetakchisigina bo'lish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

¹ Sh. Mirziyoyev. Milliy yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T.

O'zbekiston, 2017, 592 b

Shundagina ular o'zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalar bilan o'zlarini namoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil

etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llash mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ihtiyoriy ravishda, aktiv va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi. Tuman, shahar, o'lka va respublika hamda maktab o'quvchilari saroylari va uylari – ancha keng tarqalgan maktabdan tashqari muassasalardir. Ular xalq maorifi organlari rahbarligi ostida ishlaydilar.

Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat.

Maktablarda ham o'quvchilarni kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib

chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o'quvchilarda kreativ fikrlashni oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi.

Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy mumkin. Bazi o'qituvchilar nazarida o'quvchilik kreativ fikrlashni oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa, o'quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ

fikrlashning afvzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga yotlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi

Sinfdan tashqari, ijodiy fikrlash o'quvchilarga doimiy va tez o'zgaruvchan dunyoga moslashishga yordam beradi. O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini qo'llab-quvvatlash ularga o'zlari yashayotgan jamiyatning bugungi va kelajakdagi ishchilari sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishga yordam beradi: dunyodagi turli tashkilotlar va jamiyatlar yuzaga kelayotgan murakkab muammolarni hal qilish uchun innovatsiyalar va bilimlarni yaratishga tobora ko'proq tayanib, jamoaviy uyushma sifatida innovatsiyalar va ijodiy fikrlashga ahamiyat bermoqda. Shuni takidlash joizki, kreativ fikrlashni baholash tizimida sohalar qancha ko'p kiritilsa, qamrab olinayotgan tushincha ham yetarlicha bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar

adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir. Sinf dan tashqari o'qish darslari yosh avlod qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otish, matn mazmunini qayta hikoyalash, ma'lum reja asosida qisqartirib yoki shaxsini o'zgartirib hikoyalash, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, asar qahramonlarining fe'l-atvorini, xatti-harakatini baholash orqali ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, qisqa qilib aytganda, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishda katta imkoniyatlarga ega. Maktablarda ham o'quvchilarni kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda.

Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o'quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi.

O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va

rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy bo'lishi mumkin. Bazi o'qituvchilar nazarida o'quvchini kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa, o'quvchilarning mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi.

Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanadi, Ta'lim olish jarayonida oquvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida (jumladan qat'iylik va sabr-matnatda) samaradorlikni oshirishga qaratilgan bu o'z navbatida, oquvchilarning

individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar qayidagitarzda shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki ijodiy samaradorlik insonni biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bolishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Maqsadga yo'nalganlik va kreativlik borasida o'z-o'ziga ishonch bir-biri bilan chambarchas boglangan bo'lib,

ayrim tadqiqotchilar insondagi ichki ijodiy samaradorlikuning qiyinchilikka qaramasdan harakat qilishi va nihoyat oldiga qo'ygan vazifani to'liq bajarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Insondagi bunday qat'iy ishonch, o'z navbatida, insonda mavjud bo'lgan tirishqoqlik, kayfiyat va bajarilishi kerak bo'lgan vazifaning ijtimoiy holatiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Toshkent-2010.
2. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integrat-siyalashgan pedagogikasi" T.,2009.
3. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar. Xalq ta'limi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.
4. Qorayev S.B., Janbayeva M.S. "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish". Academic research in educational sciences, 2(4).
5. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention

www.arxiv.uz

www.ziyonet.uz